

# Qozog'iston milliy agrar universiteti tomonidan qishki maktab

2018 yil 22 yanvardan 3 fevralgacha Qozog'iston milliy agrar universitetida o'tkaziladigan **qishki maktab** quyidagi yo'nalishlar bo'yicha talabalarni taklif qiladi:

- Suv resurslarni boshqarish;
- Agrobiznesni modernizatsiya qilish;
- Innovatsion texnologiyalar va qishloq xo'jaligida texnik vositalar;
- Tabiiy resurslarni boshqarish;
- O'simlikchilikda agroinnovatsiya;
- Veterinariya sanitariya;
- Chorvachilik va oziq-oqvat xavfsizligi;

Mazkur kurslarda ishtirok etish istagida bo'lgan nomzodlar uchun qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- 10 yanvargacha muddatda ro'yhatdan o'tishi;
- Ingliz tilini yaxshi bilishi;

Qishki maktab bilan bog'liq harajatlar o'quv mashg'ulotlar, yashash va sertifikat Qozog'iston milliy agrar universiteti tomonidan qoplanadi.

Oziq-oqvat hamda yo'l xarajatlari ishtirokchi tomonidan qoplanadi. Qishki maktab o'quv kurslari, ularda ishtirok etish shartlari hamda tartib qoidalari to'g'risidagi to'liq ma'lumotni **TIQXMMI Xalqaro aloqalar bo'limi tel:237-09-87** olishingiz mumkin.